


Nima uchun Fransuz tilini o'rganish kerak?**Abdullayeva Shahnoza Zafar qizi**

Abdullayeva Shahnoza Zafar qizi 1996-yil 16 - iyunda Samarqand viloyati Tayloq tumanida tavallud topgan. 2023-yil Samarqand Davlat Chet tillar institutini tamomlagan. 2025-yil yanvar oyida "Scientific Academy" ilm-ma'rifat markazining MDH davlatlari miqyosda tashkil etilgan "Fidoyi xizmatlar uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Hozirda uyda bola parvarishi va hunarmandchilikning sovunli gullar sohasida bir qancha shogirdlari va shaxsiy biznesi bor.

Fransuz tili, dunyo bo'ylab 200 milliondan ortiq odam tomonidan so'zlashiladigan va 29 ta davlatda rasmiy til sifatida qabul qilingan til bo'lib, eng ta'sirchan va eng go'zal tillardan biri hisoblanadi. Fransuz tili nafaqat diplomatiya, ilm-fan va beznisda, shu bilan birga san'at, moda va musiqa kabi sohalarida ham katta ahamiyatga egadir. Fransuz tilini o'rganish jarayonida nafaqt tilni, balki yangi dunyoqarash va madaniyatni o'zlashtirish mumkin. Ushbu maqolada fransuz tilini dunyoda tutgan o'rni, biz nima uchun bu tilini o'rganishimiz kerakligi va tilni o'rganish bizga qanday imkoniyat eshiklarini ochishi haqida so'z boradi.

Fransuz tili va diplomatiya: Fransuz tili diplomatiya tili ham deyiladi, chunki BMT, YUNESKO va boshqa ko'pgina xalqaro tashkilotlarda ish tili sifatida hamda Birinchi va Ikkinchi Jahon urushi davrida diplomatik muhitda ko'p ishlatilgan.

San'at va ma'daniyat: Fransuz tili musiqa, kino, adabiyot va modada o'z o'rniga ega va bu tilni "Sevgi tili", "Muhabbat tili" ham deyiladi, chunki bu tilning talafuzi o'ziga xos musiqiy va nafisdir. Fransiya moda markazi sifatida tanilgan, Parij esa dunyo modasining poytaxti. Parfyumeriya sohasida ham Fransiya, ayniqsa Parij shahri asrlar davomida yetakchi o'rin egallab kelmoqda. Aynan shuning uchun ham fransuz tili parfyumeriya olamida nafaqat aloqa vositasi, balki brend va sifat belgisi sifatida ham



qabul qilinadi. Parijda joylashgan “Le Louvre” muzeyi dunyodagi eng mashhur san’at galereyasidir.

Fransuz adabiyoti: mashhur yozuvchilar va shoirlarning asarlari dunyo adabiyotining asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, Victor Hugo, Moliere, Voltaire, Honore de Balzac, Emile Zola, Fyodor Dostoevskiy kabi buyuk yozuvchilar fransuz tilida asarlar yaratgan.

Zamonaviy dunyoda chet tillarini bilish kishining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotida katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Chet tillari ichida fransuz tili o’zining boy madaniy merosi, estetik go’zalligi va diplomatik nufuzi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Kasbiy o’sish uchun judayam qulay til, chunki dunyoning yetakchi brend kompaniyalari Fransiyaga mansub bo’lib, til bilish ish topishda va xalqaro karera qurishda juda qo’l keladi.

Fransuz tilining o’ziga xos xususiyatlari: Fransuz tilida 26 ta harf bor, 6 ta unli va 20 ta undosh. Farqli jihti shundaki harflar miqdoridan tovushlar miqdori ko’p. Burun tovushi 4 ta, yarim burun tovushi 1 ta, yarim unli va yarim undosh 4 ta, yasama tovushlar 4 ta, olinma so’zlardagi undosh va unli 3 ta hamda uzun qisqa va cho’ziq “e” – shulardan 44 tadan ortiq tovush hosil qilinadi. Yuqoridagi harf birikmalari olinma so’zlar, tarixiy yoki fransuz tili tizimida mavjud bo’lmagan tovushlarni yozuvga ko’chirishga yordam beradi. Fransuz tilining eng muhim xususiyati shundaki, talaffuzi va grammatikasining o’ziga xosligidir. Fransuz tilida talaffuz juda muhim bo’lib, ba’zi harflar yozilishi lekin talaffuz qilinmasligi mumkin, masalan, “h” harfi. Shuningdek, “r” harfi ham fransuz tiliga xos tarzda talaffuz qilinadi. Bundan tashqari, fransuz tilida jins va ko’plik qoidalari tilni o’rganishda qiyinchiliklar tug’diradi, lekin bu holatda tilni o’rganish jarayonini yanada qiziqarli bo’lishiga sabab bo’ladigan uslublardan biri – o’yinli metodikalarni qo’llashdir.

Fransuz tilidagi grammatika qoidalari va fe’l tizimi boshqa tillardan tubdan farq qilib, ingliz tiliga qaraganda murakkabroq sintaksis va morfologiyaga ega bu o’z navbatida tilni o’rganishni qiyinlashtiradi, shunga qaramay bu tilning go’zalligi va musiqiy ohangini yanada jozibali qiladi.

Hozirgi kunda til o’rganishning zamonaviy metod va yondashuvlari ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilmoqda, til o’rganuvchilardan esa faqat vaqt va qunt bilan o’qish ta’lab etiladi. Zamonaviy ta’lim metodlari orasida interaktiv texnologiyalar, online platformalar, audiovizual vositalar shu bilan bir qatorda kommunikativ yondashuv asosida tuzilgan darslar ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fransuz tili va turizm: Fransiya eng ko’p turist tashrif buyuradigan mamlakatlardan hisoblanadi. Bu tilni bilish madaniyatni o’rganishning bir yo’li hamdir. Fransiya sayohatchilar uchun nafaqat go’zal manzarali tabiati, shu bilan birga o’zining boy tarixiy yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Parij shahridagi mashhur Eyfel minorasi, Luvr muzeyi, Versal saroyi bularning barchasi Fransiyaning madaniyati va tarixini o’zida aks ettirgan tarixiy yodgorliklaridir.

Fransuz tilini bilish bizga bir qancha imkoniyat eshiklarini ochadi: bu tilni bilganlar Fransiya va boshqa frankofon davlatlarning nufuzli universitetlarida tahsil olishlari mumkin bo’ladi. Xalqaro tashkilot va tuzulmalarda ish olib borishda fransuz tili asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa tarjimonlik, turizm, moda, diplomatiya, san’at va

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

gastronomiya sohalarida bu til katta ustunlik beradi. Fransuz tilida so'zlashadigan mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, eksport – import faoliyatini amalga oshirish, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritishda keng imkoniyat eshiklarini ochuvchi tildir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Fransuz tilini o'rganish nafaqat bilim darajasini oshirish jarayoni, balki butun bir madaniyatni, tarix va san'atni o'rganish uchun yo'ldir. Bu tilni o'rganish orqali nafaqat yangi imkoniyatlar eshigini ochasiz, balki jahon madaniyati bilan yanada yaqindan tanishasiz. Fransuz tilining go'zalligi va nafosati uni o'rganish jarayonini nafaqat zarurat balki zavqli va sevimli vazifaga aylantiradi.

